

**TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR
BERUVCHI PhD.03/30.12.2019. TAR.78.02 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

**ISLOM KARIMOV NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
TEXNIKA UNIVERSITETI**

TILLAXODJAEVA XURSHIDA DJUMAVAEVNA

**O‘ZBEKISTONDA FHDYO ORGANLARI FAOLIYATI TARIXIDAN
(1917-1991-yy)**

07.00.01 – O‘zbekiston tarixi

**Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi
AVTOREFERATI**

Termiz – 2023

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии(PhD)

Cotets of abstract of the doctor of philosophy (PhD) dissertation

Tillaxodjayeva Xurshida Djumavayevna

О‘zbekistonda FHDYo organlari shakllanishi va faoliyati tarixidan

(1917-1991-yy).....3

Тиллаходжаева Хуршида Джумаваевна

Из истории деятельности органов ЗАГС в Узбекистане

(1917-1991 гг.).....23

Tillakhodjaeva Khurshida Djumavayevna

From the history of the activities of civil registry office bodies in Uzbekistan

(1917-1991)45

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works.....49

**TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR
BERUVCHI PhD.03/30.12.2019. TAR.78.02 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

**ISLOM KARIMOV NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
TEXNIKA UNIVERSITETI**

TILLAXODJAEVA XURSHIDA DJUMAVAEVNA

**O‘ZBEKISTONDA FHDYO ORGANLARI FAOLIYATI TARIXIDAN
(1917-1991-yy)**

07.00.01 – O‘zbekiston tarixi

**Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi
AVTOREFERATI**

Termiz – 2023

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2019.1.PHD/Tar429 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.tersu.uz) va "ZiyoNET" Axborot ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Xalikova Rahbar Ergashevna
tarix fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Xudoyqulov To'liqin Do'stoboyevich
tarix fanlari doktori (DSc), dotsent

Tursunov Javli Narzullayevich
tarix fanlari nomzodi, dotsent

Yetakchi tashkilot:

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Dissertatsiya himoyasi Termiz davlat universiteti huzuridagi PhD.03/30.12.2019.Tar.78.02 raqamli Ilmiy kengashning 2023-yil "11" 09 soat 16 daqiqa majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 190111, Termiz shahri, Barkamol avlod ko'chasi, 43-uy) Tel: (99876) 221-74-55, faks: (376) 221-71-17, e-mail: termiz.du@umail.uz).

Dissertatsiya bilan Termiz davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (191 -raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 190111, Termiz shahri, Barkamol avlod ko'chasi, 43-uy. Tel:(99876) 224-15-82).

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil "29" 08 kuni tarqatildi.
(2023-yil "29" 08 daqiqa 27 raqamli reyestr bayonnomasi).



S.N. Tursunov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash raisi, t.f.d., professor

X.E. Xolmo'minov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash kotibi, t.f.n., dotsent

T.R. Pardayev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash qoshidagi ilmiy seminar
raisi t.f.d., dotsent

KIRISH (Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda yuz berayotgan chuqur globallashtirish jarayonlari va ommaviy madaniyatning ta'siri insoniyat tomonidan yaratilgan ko'pgina qadriyatlar asosiga jiddiy tahdid solmoqda. Dunyoning aksariyat davlatlarida ming yillar davomida shakllanib kelgan oila institutining zaiflashuviga ta'sir ko'rsatuvchi holatlar hisoblangan nikohlar beqarorligi oilaviy ajrimlar sonining keskin ortishiga, nikohsiz tug'ilishlar bilan bog'liq ko'plab muammolarni yuzaga chiqarmoqda.

Dunyoning Niderlandiya, Belgiya, Fransiya, Germaniya, Italiya, Polsha, Xitoy, Rossiya kabi rivojlangan davlatlarida oila institutini mustahkamlash, nikohni qayd etish hamda oiladagi muammolarni yuzaga keltiruvchi psixologik nizolarning oldini olish bo'yicha dasturlar yaratilmoqda. Shuningdek, oila bilan bog'liq qadriyatlarni saqlab qolish, oilada gender tenglikni ta'minlash, ayollarni jismoniy va emotsional zo'ravonliklardan himoya qilish, ayrim davlatlarda yuzaga kelayotgan bir jinsli nikoh bilan bog'liq ayanchli holatlarga barham berish bo'yicha ko'plab ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda.

Yangi O'zbekiston sharoitida oila institutini mustahkamlash, jamiyatda gender tenglikni ta'minlash, yosh oilalarga ijtimoiy va psixologik yordamni kuchaytirish yuzasidan jiddiy amaliy ishlar bajarilishi bilan birga, "oilaga e'tibor – o'zligimizga e'tibordir"¹ tamoyili bo'yicha muhim loyihalar amalga oshirilmoqda. Xususan, "har bir millatning saodati va izzati shu xalqning ichki intizomi va totuvligiga bog'liq. Tinchlik va totuvlik esa millat oilalarining intizomiga tayanadi, mamlakat va millat ham shuncha kuchli bo'ladi. Bu esa mazkur tadqiqotning zarurati va dolzarbligini belgilaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 2-fevraldagi PF-5325-son "Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlash sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2020-yil 18-fevraldagi PF-5938-son "Jamiyatda ijtimoiy-ma'naviy muhitni sog'lomlashtirish, mahalla institutini yanada qo'llab-quvvatlash hamda oila va xotin-qizlar bilan ishlash tizimini yangi darajaga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida", 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmonlari, 2018-yil 27-iyundagi PQ-3808-son "O'zbekiston Respublikasida oila institutini mustahkamlash konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Qarori va ushbu faoliyat tizimiga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur tadqiqot muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

¹ Mirziyoyev Sh.M. <https://www.xabar.uz/jamiyat/xotin-qizlar-qomitalari-ajrashishlarning-oldini-olish>

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Tadqiqot doirasida aks etgan adabiyotlarni tarixshunoslik nuqtai nazaridan tahlil etish asosida ularni uch guruhga bo'lish maqsadga muvofiq topildi: birinchi guruh – sobiq Ittifoq davrida yaratilgan adabiyotlar, ikkinchi guruh – mustaqillik yillarida yaratilgan adabiyotlar, uchinchi guruh – xorijlik mualliflar tomonidan mavzu doirasida yaratilgan adabiyotlar.

Birinchi guruhga kirgan adabiyotlar o'z qamroviga ko'ra o'rganilayotgan davr hayotining barcha sohalarini qamrab olganligi bilan ajralib turadi². Sovet davrida chop etilgan adabiyotlar ichida V.I. Boshko, A.X. Rasulev, M.G. Vahobov, T. Ayubov, M.K. Karaxanov, A. Belyakova, Ye.M. Vorojeykin, F. Ataxodjayevev, M. Bosanas, S. Burova va boshqalarning³ ishlarini kiritish mumkin. Mazkur mualliflar o'rganilayotgan mavzu doirasida huquqiy nuqtai nazardan sobiq Ittifoqda, xususan, O'zbekiston SSRda oila va nikoh munosabatlarining asoslari, huquqiy jihatdan oilani mustahkamlash va boshqa masalalarga e'tibor qaratganlar. Biroq bevosita FHDYo organlari, ularning faoliyati bilan bog'liq masalalar to'liq yoritilmagan. Jumladan, F. Ataxodjaev va T. Ayubovlar O'zbekiston SSRda o'rganilayotgan davr ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayoti bilan bog'liq ma'lumotlar bilan cheklanib, oila va nikoh munosabatlari, ularning holati bilan bog'liq masalalarga kam o'rin ajratganini kuzatish mumkin. O'rganilayotgan davr bilan bog'liq ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayot masalalariga oid ilmiy-tadqiqot ishlari amalga oshirilgan.

Jumladan, G. Tansikbayeva⁴, M. Samarxodjayeveva, F. Otaxodjayevevlar dissertatsiyalarida XX asrning boshlarida respublikaning oilaviy munosabatlar, insonlarning tabiiy harakatlanishi holatlari bilan bog'liq bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy hayotida yuz bergan jarayonlarni atroflicha yoritganlar, biroq mazkur tadqiqotlarda O'zbekistonda FHDYo organlarining shakllanishi va rivojlanishi bilan bog'liq masalalar to'liq o'rganilmagan. Tadqiqotlarda keltirilgan faktik ma'lumotlar bu davrdagi ijtimoiy-iqtisodiy ahvolni qiyosiy o'rganishda muhim ilmiy ahamiyatga ega. T. Ayubovning kitobida Sobiq ittifoq davrida 1969-yilda qabul qilingan Oila va

² Бошко В.И. Очерки советского семейного права. – Киев, Госполитиздат УССР, 1952. Расулеев А.Х. Ўзбекистонда совет судининг яратилиши ва ривожланиши. – Тошкент, 1957; Вахобов М.Г. Ўзбек социалистик миллати. – Тошкент, 1960.; Аюбов Т.А. Советское семейное право Узбекистана в период строительства и упрочения социализма. – Ташкент: Фан, 1964; Великий Октябрь и раскрепощение женщин Средней Азии и Казахстана. – Москва: Изд-во Мысль, – 1971; Белякова А.М., Ворожейкин Е.М. Семейные правоотношения в СССР. – Москва: Изд-во Юрид. лит., 1972; Ворожейкин Е.М. Советское семейное право. – Москва: Изд-во Юрид. лит., 1974; Ворожейкин Е.М. Молодым супругам о браке и семье, правах и обязанностях. – Москва: Изд-во Юрид. лит., 1975; Караханов М.К. Демографические процессы в Средней Азии во второй половине XIX-столетия: Брачность, рождаемость, смертность в СССР. Сборник статей. – М., 1977; Аюбов Т.А. Государство и личность. – Ташкент: Узбекистан, 1978; Бурова С.Н. Социология и право о разводе. – Минск: Изд-во БГУ, 1979; Атаходжаев Ф.М. Возникновение и развитие советского законодательства о заключении и расторжении брака в Узбекистане. – Ташкент: Изд-во СамГУ, 1983; Бойко В.В. Малодетная семья (Социально-психологическое исследование). – Москва: Изд-во Статистика, 1980; Босанац М. Внебрачная семья. – Москва: Изд-во Прогресс, 1981; Кодекс о браке и семье Узбекской ССР. – Ташкент: Узбекистан, 1983.

³ Бобожонова Д. Ўзбекистонда миллатлараро муносабатлар ривожининг ижтимоий-иқтисодий омиллари. – Тошкент: Фан, 1994; Муртазаева Р. Ўзбекистонда миллатлараро муносабатлар ва бағрикенглик. –Тошкент: Университет, 2007.

³ Мухамедов Р. Оилада эр-хотиннинг ҳуқуқий муносабатлари. – Тошкент: Ўзбекистон нашриёти, 1975; Самарходжаева М. Развитие брачно семейного законодательства Узбекской ССР о воспитании детей в семье. Дисс. ... д-ра. ист. наук. – Ташкент; 1984.; Атамирзаев.О. Гентшке В. Муртазаева Р. Узбекистан многонациональный, историко-демографический аспект. – Ташкент: Изд-во Медицинская литература, 1988.

⁴ Тансыкбаева Г. Возникновение и развитие советского и семейного права в Узбекистане. Автореф.канд. юрид.наук. – Ташкент, 1962.

nikoh Kodeksining onalik va bolalikni muhofaza qilinishiga oid ma'lumotlari yoritilgan⁵.

Bu adabiyotlar mazmunan sovet davri mafkurasi ta'sirida bo'lib, jamiyat hayotida kechayotgan jarayonlar hukmron mafkura talablaridan kelib chiqqan holda ifodalangan. Aksariyat ma'lumotlar hukmron tuzum manfaatlarini hisobga olgan. Ushbu davrda yaratilgan adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, qator mualliflar sovet tuzumi tomonidan O'zbekistonda yuritilgan siyosat "xalq manfaatlarini"ni ko'zlab yuritilganligini ta'kidlashadi. Mavzu doirasida bevosita ilmiy-tadqiqot ishiga daxldor ma'lumotlar juda kam. Yaratilgan asarlar asosan sobiq Ittifoq miqyosida oila va nikoh masalalari, oilalarni mustahkamlash choralari va boshqa masalalarni yoritilishi bilan cheklanib, O'zbekistondagi kechayotgan jarayonlarga umumiy baho berish bilan kifoyalanilgan. Sohaga oid o'zbek olimlari asarlarida esa masalaga asosan huquqiy nuqtayi nazardan yondashilgan⁶.

Ikkinchi guruh adabiyotlar mustaqillik yillarida yaratilgan asarlar bo'lib, ular jarayonlarga yondashuvda yangi nazariy metodologiyaga asoslanganligi bilan ajralib turadi. Ulardan T. Abuyevning tadqiqoti "Qayta qurish" davridagi ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarning aholi soni va tarkibi, oilalarga ta'sirini o'rganishda muhim ahamiyat kasb etadi⁷. Asosan O'zbekistondagi ko'pchilik tadqiqotchilar Sovet davrida kechgan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayot masalalariga yangicha yondashishlari bilan jarayonlarning haqqoniy bahosini berishga harakat qilishgan. Ilmiy izlanishlar sovet davri tarixshunosligida yaratilgan asarlarni qayta tahlil qilinganligi bilan ham ahamiyatlidir⁸.

Uchinchi guruh adabiyotlar xorijlik mutaxassislar qalamiga mansub bo'lib, ular o'rganilayotgan mavzu doirasida masalaga xolisona yondashuvlari bilan ajralib turadi. Masalan, O'zbekistonda 20-30 yillardagi o'zbek ayollarining oilada huquqiy erkinliklarga erishishi, uning huquqiy asoslarini E. Judich, N. Kilic-Schubel, M. Kamp kabi xorijiy olimlar o'z tadqiqotlarida yoritganlar⁹.

⁵ Аюбов Т.А. Советское семейное право Узбекистана в период строительства и упрочения социализма. – Ташкент: Фан, 1964; o'sha muallif. Государство и личность. – Ташкент: Узбекистан, 1978.

⁶ Мухамедов Р. Оилада эр-хотиннинг ҳуқуқий муносабатлари. – Тошкент: Ўзбекистон нашриёти. 1975; Самарходжаева М. Развитие брачно-семейного законодательства Узбекской ССР о воспитании детей в семье. – Ташкент, 1984; Атамирзаев О. Гентшке В. Муртазаева Р. Узбекистан многонациональный, историко-демографический аспект. – Ташкент: Изд-во Медицинская литература, 1988.

⁷ Абуев Х. Совет ҳокимиятининг қайта қуриш сиёсати ва унинг Ўзбекистонга таъсири. Тарих фан. фалс.д-ри (PhD) дисс. – Тошкент, 2020.

⁸ Буриева М.Р. Рождаемость в Узбекистане. – Ташкент: Фан, 1991; Отахўжаев Ф.М. Никоҳ ва ажралиш. – Тошкент, 1991; Отахўжаев Ф.М. Никоҳ ва унинг ҳуқуқий тартибга солиниши. – Тошкент: Ўзбекистон, 1995; Бўриева М.Р. Ўзбекистонда оила демографияси. – Тошкент: Университет, 1997; Комилова Ф.К. Демографический потенциал Узбекистана. – Ташкент, 1997; Отахўжаев Ф.М. Ўзбекистон республикаси никоҳ тўғрисидаги қонунларининг ривожланиши ва уларни такомиллаштириш муаммолари. Тарих фан.ном. ...дисс. – Тошкент. 2000. – Б.151.; Қозоқов Т. Асримиз бошидаги маросимлар // Фан ва турмуш. – Тошкент, 2000. – № 3.; Шамсутдинов Р. Ўзбекистонда коллективлаштириш ва қулқлаштириш. – Тошкент, 2006; Убайдуллаева Р.А. Семья в Узбекистане. – Ташкент, 2012; Шамсутдинов Р., Мўминов Х. Ўзбекистон тарихи. – Тошкент. 2013; Мамадалиева Х.Х. Брак и семья в Узбекистане // Народо население. – 2017. – №4; Юлдашев Н.Н. Ўзбекистонда оила институтига таъсир этувчи демографик жараёнлардаги ўзгаришлар // Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар илмий-электрон журнали. – 2017. – №4.; Шайх Мухаммад Содик Мухаммад Юсуф. Бахтиёр оила. – Тошкент: Hilol, 2020.

⁹ Judich E., Tucker. Women, family, and gender in Islamic Law. – Cambridge university Press, 1998; Nurten Kilic-Schubel. Central Asia. Encyclopaedia of women & Islamic cultures. – Leiden-Boston, 2007. Volume IV. – P. 333-334.; Kamp M. The new woman in Uzbekistan: Islam, modernity, and unveiling under communism. – Seattle &

Shuningdek, Sovet Ittifoqi davrida musulmon oilalarining O‘zbekistonda shakllanishi va ularning sovet qonunchiligi asosida taraqqiy etishi masalalari tahlil etilgan. Mazkur tadqiqotlarda O‘rta Osiyo, xususan, O‘zbekistondagi ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar maxsus tahlil etilmagan, biroq ularda umumiy oilaviy masalalar, ularga qulay bo‘lgan vaziyatlar va ularning mamlakat iqtisodiyotiga ta'siri asoslab berilgan¹⁰.

Shunga qaramasdan, FHDYo organlari faoliyati mustaqil tadqiqot obyekti sifatida o‘rganilmagan. Ushbu masaladagi bo‘shliqni to‘ldirish maqsadida mazkur tadqiqot amalga oshirildi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti “O‘zbekiston tarixi” kafedrasining “Qadimgi, o‘rta asrlar, mustamlakachilik, sho‘rolar va mustaqillik davrlaridagi ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy jarayonlar: tarix va hozirgi zamon” mavzusidagi ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi 1917-1991-yillarda O‘zbekistonda FHDYo tizimi faoliyati, jumladan, fuqarolik holatlarini ro‘yxatga olish idoralarining shakllanishi, uning faoliyatini takomillashtirish jarayonlarini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Turkistonda oila va nikoh munosabatlari sohasida yuz bergan demografik jarayonlar tahlilini yoritish;

Turkistonda fuqarolik holatlari dalolatnomalarini yozish organlarining shakllanishi va uning huquqiy asoslari yaratilishini tahlil etish;

XX asr 20-40-yillarida Sovetlarning O‘zbekistonda FHDYo organlari faoliyatining yo‘lga qo‘yilishi jarayonini tahlil qilish;

Ikkinchi jahon urushidan keyingi yillarda O‘zbekistonda FHDYo organlari faoliyatini yoritish;

XX asr 70-80-yillarda O‘zbekistonda FHDYo organlari faoliyatini takomillashtirilishining natijalarini tanqidiy tahlil qilish;

“Qayta qurish” siyosati va uning fuqarolik organlari faoliyatiga ta'siri va yo‘l qo‘yilgan kamchiliklarni xolisona tahlil etish;

“Rivojlangan sotsializm” sharoitida sovet hukumatining milliy oila bilan bog‘liq qadriyatlarga tahdidi oqibatlarini ochib berish;

Sovet hukumatining oila va nikoh munosabatlarni tahlil etish orqali FHDYo organlarining o‘rnini asoslash.

Tadqiqotning obyekti sifatida O‘zbekistonda FHDYo tizimi faoliyati, jumladan, fuqarolik holatlarini ro‘yxatga olish ishlarini takomillashtirish bilan bog‘liq jarayonlar tahlili masalasi tanlangan.

London, 2006.; The wedding Feast: Living the new Uzbek Life in the 1930 s // Everyday Life in Central Asia: past and present / edited by J. Sambaed, R. Zanca. Bloomington and Indianapolis. 2007. – P. 103 – 114. American family: Bent – but not broken // U.S. News and world report. 1950., June 16.

¹⁰ Benningsen A. La famille musulmane en Union sovietique. – Cahiers de monde russe et sovietique, 1, 1959; Carrere-D’Encausse H. La femme musulmane en URSS. – Esprit, 25, 1957; Dickson H.R. P. The Arab of the desert. – George Allen & UN LTD, 1951. 664 p; Fathi H. Femmes d’authorite’ dans l’ Asia Centrale contemporaine. Quetres et recompositions identitaires dans Islam postsovietique. Visonneuve&harose/ IFEAC. 2004; Lesgaft P.F. Family education of the child and its value. – M., 1991.

Tadqiqotning predmetini O‘zbekistonda FHDYo tizimining shakllanishi, rivojlanish jarayonlari, bu borada amalga oshirilgan tadbirlar, yo‘l qo‘yilgan xato va kamchiliklarning sabab va oqibatlarini kabi masalalar tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotni amalga oshirish uchun tarixiy-taqqoslash, qiyosiy-tahlil, tizimlashtirish, xolislik, muammoviy-xronologik, fanlararo yondashuv, sotsiologik va statistik tadqiqot usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida o‘zbek, tojik va turkman xalqlarida amakivachchalar o‘rtasidagi nikoh keng tarqalganligi, Turkistonda katta patriarxal oilalarning mavjud bo‘lganligi, aholi orasida shariat va odat qoidalari hukmronlik qilganligi, nikohning endogam va ekzogam turlari aralash holatda yoyilganligi dalillangan;

Sovet hokimiyatining ilk yillarida fuqarolikni ro‘yxatga olish ishlarini ruhoniylardan FHDYo bo‘limlariga o‘tkazilganligi, Buxoro Xalq Sovet respublikasida nikoh va oila to‘g‘risidagi qonunchilik ishlari shariat normalari bo‘yicha amalga oshirilganligi, mahalliy aholining fuqarolik guvohnomalari (metrikalari) bilan yetarli darajada tanish emasligi aniqlangan;

Sovet davlati nikoh tuzishda qalin berishni tugatish masalasiga qat‘iy kirishganligi, O‘zbekistonda aholi ro‘yxatini o‘tkazish natijalariga ko‘ra nikohlanuvchilar sonining ilk bor statistikasi olinganligi, ikkinchi jahon urushidan keyingi yillarda nikohdan o‘tuvchilar soni jihatidan Toshkent shahri respublikada eng yuqori ko‘rsatkichga ega ekanligi asoslangan;

FHDYo organlari Adliya vazirligi tarkibiga o‘tkazilgan paytda xodimlarning ish haqi past miqdorda belgilanganligi, Toshkent shahar Chilonzor tumani ijroiya qo‘mitasi FHDYo bo‘limi yangi tug‘ilgan chaqaloqlarni tantanali ro‘yxatdan o‘tkazish bo‘yicha ishlarni yaxshi yo‘lga qo‘yganliklari aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Sovet davrida O‘zbekistonda oila munosabatlarini qonun asosida yo‘lga qo‘yish borasida amalga oshirilgan tadbirlar hamda sohada yo‘lga qo‘yilgan o‘zgarishlar, ularning natijalari hamda FHDYo organlarining faoliyati bilan bog‘liq tarixiy tajriba ilk bor umumlashtirilgan holatda ilmiy qamrovga tortildi. Shu asosda sohani rivojlantirishda asos bo‘ladigan ustuvor yo‘nalishlar aniqlashtirilib, fuqarolik holatlarini qayd etishni takomillashtirish hamda bu borada zamonaviy tizimni yo‘lga qo‘yishning turli davrlarda tajribadan o‘tgan yo‘nalishlari o‘zaro qiyosiylik tamoyili asosida tavsiflanib, ushbu sohani yanada rivojlantirish bilan bog‘liq jarayonlar tahlil etilgan;

Shuningdek, O‘zbekistonning mustamlaka va mustaqillik davri tarixini yangicha nuqtai nazardan tadqiq etishda aholi hayotida muhim o‘rin tutadigan FHDYo organlarining mintaqada shakllanishi va uning huquqiy asoslarining yaratilishi, jumladan, sohani tizimlashtirish, raqamlashtirish jarayonini yanada takomillashtirish hamda elektron hukumat tizimini keng yo‘lga qo‘yish bilan bog‘liq masalalar talqin etilib, bu sohani yanada rivojlantirish uchun zarur bo‘lgan nazariy xulosa va takliflar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi ilmiy ishda tarix fanida tan olingan yondashuv va usullarning qo‘llanilgani, ko‘p turdagi tarixiy adabiyotlar hamda arxiv hujjatlaridan foydalanilgani, birlamchi manbalarga asoslanilgani, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotda joriy etilgani, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati O‘zbekistonda FHDYo organlari faoliyatining tashkil etilishi sohani takomillashtirish bilan bog‘liq tadbirlar, bu borada yo‘lga qo‘yilgan o‘zgarishlar va xatolar bilan bog‘liq jihatlar birlamchi manbalar asosida ilk bora tarixnavislik kontekstida tahlil etilib, mazkur soha bilan bog‘liq ko‘pgina manbalar ilmiy qamrovga kiritilgani bilan izohlanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati shundaki, dissertatsiyada keltirilgan xulosalar, taklif va tavsiyalar asosida Yangi O‘zbekistonning ijtimoiy-ma’naviy, siyosiy va madaniy rivojlanishi, jamiyat hayotini barqarorlashtirishga qaratilgan davlat dasturlarining bajarilishida, shuningdek, sovet va mustaqillik davri fuqarolik holatlarini o‘rganish tarixiga oid yangi darslik va o‘quv qo‘llanmalarini yaratishda muhim amaliy ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi: 1917-1991 yillarda O‘zbekistonda FHDYo organlari shakllanishi va faoliyatini o‘rganish yuzasidan ishlab chiqilgan ilmiy xulosa va takliflar asosida:

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida o‘zbek, tojik va turkman xalqlarida amakivachchalar o‘rtasidagi nikoh keng tarqalganligi, Turkistonda katta patriarxal oilalarning mavjud bo‘lganligi, aholi orasida shariat va odat qoidalari hukmronlik qilganligi, nikohning endogam va ekzogam turlari aralash holatda yoyilganligi bilan bog‘liq ma’lumotlardan “O‘zbekiston tarixi” telekanalining Taqdimot ko‘rsatuvi ssenariysini tayyorlashda foydalanilgan (O‘zbekiston Milliy teleradio-kompaniyasining 2022-yil 3-avgustdagi 06-28-1234-son ma’lumotnomasi). Natijada, keng jamoatchilik orasida mamlakatimiz hududlarida oila nikoh munosabatlari, uning rivojlanib borish bosqichlari tarixiga oid bilimlarning kengayishiga xizmat qilgan;

Sovet hokimiyatining ilk yillarida fuqarolikni ro‘yxatga olish ishlarini ruhoniylardan FHDYo bo‘limlariga o‘tkazilganligi, Buxoro Xalq Sovet respublikasida nikoh va oila to‘g‘risidagi qonunchilik shariat normalari bo‘yicha amalga oshirilganligi, mahalliy aholining fuqarolik guvohnomalari (metrikalari) bilan etarli darajada tanish emasligi ma’lumotlardan O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi faoliyatida foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining 2022-yil 23-noyabrdagi 24/8-6/14428-son ma’lumotnomasi). Natijada FHDYo organlari faoliyatini samarali tashkil etish, milliy qadriyatlarimizning oila-nikoh munosabatlariga ijobiy ta’siri etishi, nikoh va ajralishlardagi ko‘rsatkichlar dinamikasi shakllantirishga xizmat qilgan;

Sovet davlati nikoh tuzishda qalin berishni tugatish masalasiga qat’iy kirishganligi, O‘zbekistonda aholi ro‘yxatini o‘tkazish natijalariga ko‘ra nikohlanuvchilar sonining ilk bor statistik tahlilga olinganligi, ikkinchi jahon urushidan keyingi yillarda nikohdan o‘tuvchilar soni jihatidan Toshkent shahri

Respublikada eng yuqori ko'rsatkichga ega ekanligi bilan bog'liq ma'lumotlardan O'zbekiston Respublikasi oila va xotin-qizlar davlat qo'mitasi faoliyatida foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi oila va xotin-qizlar davlat qo'mitasining 2022-yil 23-dekabr 02-01/1473-son dalolatnomasi). Natijada FHDYo idoralari oila va xotin-qizlar davlat qo'mitasi bilan samarali ishlashini ta'minlash va oilalarda ajralishlarni oldini olishga oid masalalarni hal qilishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 10 ta ilmiy-amaliy anjumanlarda, shu jumladan, 6 ta xalqaro konferensiya va 4 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida aprobatsiyadan o'tgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 35 ta ilmiy ish e'lon qilingan. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan nashrlarida 7 ta, bundan tashqari, 8 ta respublika, 10 ta xalqaro va 10 ta xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Tadqiqot kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilovadan iborat bo'lib, ishning umumiy hajmi 134 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi asoslanib, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekt va predmeti belgilab olingan. Tadqiqot ishining O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi, tadqiqotning yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan. Shuningdek, olingan natijalarning ishonchligi asoslangan holda ularning nazariy va amaliy ahamiyati ko'rsatilgan. Tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilishi, aprobatsiyasi, e'lon qilingan ishlar va ishning tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning "Turkistonda oila va nikoh munosabatlarining jamiyatda tutgan o'rni va uni qayd qilish bilan bog'liq jarayonlar tahlili" deb nomlangan birinchi bobining birinchi paragrafi Turkiston hududlarida oila va nikoh munosabatlarining o'ziga xos jihatlari va Rossiya imperiyasi bosqinidan keyin mintaqada yuz bergan demografik jarayonlar tarixiga bag'ishlangan. Kishilik jamiyatining barcha tarixiy davrlarida oila va nikoh munosabatlari jamiyatning eng muhim va ajralmas qismi bo'lib kelgan.

Ko'plab tadqiqotlarda O'rta Osiyoda uzoq davr mobaynida katta patriaxal oilalar (oilaning eng dastlabki tarixiy shakli)da 30 dan 45 kishigacha bo'lganligi haqida ma'lumotlar keltiriladi. Bunday oilalarda oila boshlig'i hisoblangan ota bilan birga uning oilasi o'g'il farzandlari, ularning farzandlari, qizlari, ayrim hollarda oila boshlig'ining aka-uka va opa-singillari ham yashagan¹¹.

Yarim ko'chmanchi o'zbeklar turmush tarzini o'rgangan A.D. Grebenkin ham shunga o'xshash ma'lumotlarni keltiradi. Ba'zi o'zbek oilalarida oila qurgan o'g'illarini ajratish odat tusiga kirgan bo'lsa, boshqalarida esa, aksincha, ular otasi bilan bitta o'choq atrofida uzoq vaqt yashashgan, oilada 10 nafarcha turmush qurgan

¹¹ Снесарев Г.П. О некоторых причинах сохранения религиозно-бытовых пережитков у узбеков Хорезма. / СЭ, 1957. – №2. – С.67.

va o'z farzandlariga ega o'g'illar birga yashagan oilalar bo'lgan¹². Ana shunday katta oilalardagilar soniga qarab, qishloqda yoki shaharlarda yashovchi aholi soniga qarab, soliq to'lovchilarni aniqlashgan. Shu asosda aholini taxminiy soni mamlakat bo'yicha aniqlangan. Chunki har bir qishloq yoki ovul oqsoqollarida bunday ro'yxat mavjud bo'lgan, shaharlarda esa mahalla oqsoqollari ro'yxatni yuritishgan.

Islom dini nikohni, farzandlar tug'ilishini va ularni tarbiyalashni ne'mat deb biladi. Shariatga ko'ra, nikoh "ajoyib amal" bo'lib, "Allohning bandalari va yerdagi noibini" ko'paytirish maqsadini ko'zlaydi.

Nikohdan o'tish tartibi, nikohda yashash, bolalar tug'ilishi, qarindoshlar va tanishlar bilan muomala qilish, meros huquqlari, bir so'z bilan aytganda, oilaning odamlar va jamiyat bilan, shuningdek, oila a'zolarining turli munosabatlari diniy me'yorlarda o'z ifodasini topgan bo'lib, ularga rioya qilish barcha imon keltirganlar uchun majburiy edi. Shuni ta'kidlash kerakki, nikoh, oilani shakllantirish bilan bog'liq barcha asosiy normalar, ayniqsa odamlarning demografik xatti-harakatlarini muayyan darajada tartibga soluvchi normalar shariatda pedantik izchillik bilan qayd etilgan.

Bu qoidalar o'tgan davr xalqlarining urf-odatlarini umumlashtirish bo'lib, shuning uchun o'tgan davrlarning diniy jihatdan rasmiylashtirilgan tajribasini o'z ichiga oladi. Bu jihat hatto Qur'onda¹³ ham tilga olingan. Shu bilan birga, butun aholi shariat me'yorlari va qoidalarining mazmuni to'g'risida xabardor emas edilar, ular ba'zan shariat me'yorlariga zid bo'lgan og'zaki qoidalar (odatlar)dan ko'proq o'zlashtirdilar. Masalan, O'rta Osiyoning ko'plab xalqlari orasida odatga ko'ra, uning ukasi marhum akasining xotiniga uylanishi kerak edi, ammo shariatga ko'ra bunday qoidalar yo'q.

XIX asr o'rtalarida Turkiston xalqlarining aksariyatida ekzogam taqiqlar barham topadi. Tarixchi M.S. Andreevning fikriga ko'ra, tog'lik tojiklar va Pomir xalqlarida amakivachchalar o'rtasidagi nikohlar, bu hududlardagi nikohning asosiy ustunligi bo'lib, bu holatda turmush qurganlarning ota-bobolari yagona bo'lib qoladi, xafagarchiliklar bo'lmagan va aksincha, bunday nikohdan juda mamnun bo'lganlar. M.S. Andreevning guvohlik berishicha, agar qiz akasining yagona merosxo'ri bo'lsa, aka-ukalarning bolalari o'rtasidagi nikoh majburiy deb hisoblangan¹⁴. Tog' tojiklari begona odamlar bilan turmush qurmaydilar va "ko'pincha opa-singillari – amakivachchalari, ikkinchi amakivachchalari ...otaning va onaning tomonidagilar bilan turmush qurishadi"¹⁵, deb yozgan edi etnograf tarixchi I.I. Zarubin.

Rossiya imperiyasi tomonidan O'rta Osiyo xonliklarining bo'ysundirilishi, bu hududlarda tovar-pul munosabatlarining, ayniqsa, kapitalistik munosabatlarning kirib kelishi patriarxal oilalarning parchalanishida o'ziga xos o'rin tutgan¹⁶.

¹² Гребенкин А.Д. Узбеки. / Сборник. Русский Туркестан, 11. – Москва. 1872. – С. 62.

¹³ Alloh sizlarga bayon qilishni va sizlardan oldingilarning odatlari bilan hidoyat qilishni xohlaydi". Qur'oni karim, 4-sura, 31-oyat.

¹⁴ Материалы к изучению культуры и быта таджиков. (Институт истории, археологии и этнографии АН Таджикской ССР); Вып. 2. Подготовка к печати, примеч. и доп. А. К. Писарчик. 1958. – С.521.

¹⁵ Зарубин И.И. Отчет об этнологических работах в Средней Азии летом 1926 года// Известия Академии наук СССР. VI серия. – Москва, 1927. – С.351-360.

¹⁶ Кисляков Н.А. Очерки по истории семьи и брака у народов Средней Азии и Казахстана. – Ленинград, 1969. – С. 22.

Tadqiqot davomida aholi statistikasi masalalariga alohida ahamiyat qaratildi. Ammo demografik jarayonlar, ularni tartibli tarzda yo'lga qo'yish bilan bog'liq muammolar bartaraf etilmadi.

Masalan, 1870-yil Sirdaryo viloyatiga tegishli ma'lumotlarga ko'ra, viloyat bo'yicha har ming aholiga nisbatan tug'ilish – 34,5 ta, shu jumladan, Toshkent shahri bo'yicha – 38,8 ta, Qurama uyezdi bo'yicha – 30,2 ta, Jizzax uyezdi – 40,6 ta, Xo'jand uyezdi bo'yicha – 37,8 ta, Chimkent uyezdi bo'yicha – 27,7 tani tashkil etadi¹⁷.

O'rta Osiyo aholisi 1865-1900-yillar orasida o'sish ko'rsatkichi ustuvorlik qilgan. Bu o'sish tabiiy, ya'ni tug'ilish hisobiga bo'lgan. Mexanik o'sish esa muhim ahamiyat kasb etmagan.

Turkistonda sovet hokimiyati o'rnatilgunga qadar ham o'lim holatlari to'g'risida aniq bir statistika yuritilmagan. Demak, o'lim holatlari bilan bog'liq statistika ham amalda mavjud emas edi.

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida ham Turkiston hududlarida nikohdan o'tish va uni bekor qilish holatlari shariat talablari asosida amalga oshirilgan.

“Turkistonda fuqarolik holatlarini qayd etish organlarining shakllanishi va huquqiy asoslarining yaratilishi” deb nomlangan ikkinchi paragrafda 1917-yilning oktabr to'ntarishidan keyin hokimiyatga kelgan bolsheviklar o'z hokimiyatini mustahkamlash choralari ko'rdi. Hamma yerda hokimiyatni Sovetlarga topshirishi to'g'risida dekretlar chiqarildi. Jumladan, 1917-yil 22-noyabrda Sovet sudi organlarini tashkil etish to'g'risida, 18-dekabrda esa FHDYo to'g'risida dekret qabul qilindi¹⁸.

1917-yil dekabr oyida sovet hukumatining ikkita “Fuqarolik nikohi, bolalar va fuqarolik holatlarini qayd etishni olib borish” va “Nikohdan ajralish to'g'risida” dekretlari e'lon qilindi¹⁹. Aynan, shulardan sobiq Sovet oila huquqining tarixi boshlanadi.

Turkistonda FHDYo organlarining tashkil etilishi, sof tashkiliy xarakterdagi qiyinchiliklardan tashqari, mahalliy aholiga cherkov va davlatni ajratish to'g'risidagi umumiy farmonni qo'llash bilan bog'liq qiyinchiliklarni boshdan kechirdi. 1919-yil 28-iyul kuni Turkiston Ichki ishlar Komissarligi, Markaziy hukumatning fuqarolik aktlari to'g'risidagi farmonlarini to'g'ri amalga oshirish maqsadida 99.1-sonli qarori asosida respublikaning barcha Ijroiya qo'mitalariga (shahar, tuman, volost, qishloq) 1919-yil 1-sentyabrdan kechiktirmay, fuqarolik holati dalolatnomasi yozuvlarining mahalliy bo'limlarini tashkil etishni buyurdi²⁰. Shu asosda FHDYolar faoliyat ko'rsatishi yo'lga qo'yila boshlandi. O'lkada Sovet hokimiyatining o'rnatilishi hamda sovet tartiblarining joriy etilishi bilan Turkistonda shu paytgacha amal qilib kelingan va so'zsiz bo'ysunilgan oila va nikoh munosabatlariga barham berilib, fuqarolik holatlarini tartibga soluvchi sovet qonunlari joriy etila boshlandi. Bu

¹⁷ Терентьев М.А. Статистические очерки Среднеазиатской России, очерк III, Приложение №4, Движение населения. Сирдаринской области за 1870 г. СПб, 1874. –С.50. Карахонов М.К. Источники изучения демографической истории Средней Азии. Брачность, рождаемость, смертность в России и в СССР. Сборник статей. – Москва: Статистика, 1977. – С.210.

¹⁸ Вахобов М. Социалистик ўзбек миллати. – Тошкент, 1960. – Б.251-253.

¹⁹ Сборник Узаконений 1917. №10, - С.152 ; № 11.– С. 160.

²⁰ Свердлов М. Советское семейное право. – Москва: Госюриздат. – С.1958. – 241.

borada Sovetlar tomonidan qabul qilingan dastlabki aktlar sifatida “Fuqarolik holati haqidagi kitoblarni joriy etish to‘g‘risida”gi RSFSR xalq komissarlari Sovetining farmonini ko‘rsatish mumkin²¹.

Turkiston ASSRda fuqarolik holatlarini tartibga solish bilan bog‘liq yana bir qator hujjatlar qabul qilindi. Jumladan, 1917-yil dekabrda “Nikoh, oila va vasiylik to‘g‘risidagi Qonunlar Kodeksi”, 1918-yil 16-sentabrda “RSFSRning fuqarolik holati dalolatnomalari, niqoh, oila va vasiylik to‘g‘risidagi qonun Kodeksi” nikoh va oila huquqining muayyan tizimini joriy etib, shu qonunning yangi huquqiy qoidalarini belgilab berdi²². Undan oldinroq “FHDYo to‘g‘risidagi dekret” ham qabul qilingan bo‘lib, unga ko‘ra endilikda Turkiston hududlarida rasman tan olinadigan nikoh – bu FHDYo organlari tomonidan ro‘yxatga olingan nikoh hisoblanishi belgilab qo‘yildi.

Ko‘rilgan chora-tadbirlar natijasida shu narsa aniqlanadiki, 1922-yilga kelib o‘lkada mavjud FHDYolar huzurida 465 ta bo‘limlar faoliyat yuritib, ular tomonidan ro‘yxatga olingan nikohlar – 16525 ta, tug‘ilish – 2774, o‘lim – 28877, ajralishlar soni – 3199, familiyani o‘zgartirishlar – 68 ta qayd etilgan²³.

Sovet davlati o‘z boshqaruv tartiblarini joriy eta boshladi. Fuqarolik holatlarini tartibga solish, statistikani yo‘lga qo‘yishga kirishildi. FHDYo organlari tashkil etila boshlandi, ularning huquqiy asoslari yaratildi. FHDYo organlari faoliyatini kuchaytirish choralari ko‘rildi. Aholi orasida ushbu organlarga nisbatan ishonchni mustahkamlashga harakat qilindi. Mahalliy hokimiyatlar zimmasiga FHDYo organlari faoliyatini yo‘lga qo‘yish va aholi ishonchini mustahkamlashda mas‘uliyatni oshirdi. Yangi hukumat FHDYo organlari faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan ishlarni kuchaytirish maqsadida mahalliy musulmon aholi odatlari bilan kelishishga hamda qozi va biylarni ham bu faoliyatga jalb etishga majbur bo‘ldi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“XX asr 20-60-yillarida O‘zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar va FHDYo organlari faoliyatining yo‘lga qo‘yilishi”** deb nomlanib, unda O‘zbekiston SSR tashkil topganidan keyin mamlakatimiz hududlarida ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar hamda FHDYo idoralari faoliyatida amalga oshirilgan yangi tartiblar, ularning faoliyatini mustahkamlash jarayonlarining kechishi kabi muammolar yoritiladi. Jumladan, **“20-40-yillarda sovetlarning O‘zbekistonda yuritgan ijtimoiy-iqtisodiy siyosati va FHDYo organlari faoliyatining yo‘lga qo‘yilishi”** deb nomlangan birinchi paragrafda sovet hokimiyatining o‘tgan asr 20-40-yillarida Respublikadagi ijtimoiy-iqtisodiy siyosati va FHDYo idoralari faoliyatining qayta tuzilishi, tarkibiy o‘zgarishlarning amalga oshirilishi va ular faoliyatining yo‘lga qo‘yilishi masalalariga bag‘ishlanadi. Shuningdek, milliy davlat chegaralanishining o‘tkazilishi natijasida O‘zSSRning tashkil topishi va ma‘muriy tuzilish masalalari tahlilga tortigan. Mamlakatda amalga oshirilgan aholini ro‘yxatga olish jarayonlari, uning natijalari tahlil etilib, Respublika aholisi, uning miqdori, tarkibi, aholining o‘sish sur‘atlari, aholining sun‘iy o‘sishi

²¹ Сборник Узаконений. 1917. №10. – С.160.

²² Сборник Узаконений. 1917. №10. – С. 25.

²³ O‘zMA, 39-fond. 1-ro‘yxat, 618 a-ish, 4-5-varaqlar.

sabablari o‘rganilgan. Quyidagi jadvalda aholining o‘shish dinamikasi keltirilgan: “2.1-jadvalga qarang”.

2.1-jadval

1925–1930-yillarda O‘zbekiston aholisi sonining o‘shish ko‘rsatkichi
(ming kishi)²⁴.

Yillar	Barcha aholi
1925	4418
1926	4621
1927	4565
1928	4673
1929	4786
1930	4926

FHDYo idoralari tomonidan dalolatnomalarni tuzish masalalarining yo‘lga qo‘yilishi murakkab kechgan. Mahalliy aholi ushbu idora faoliyatiga unchalik ishonqiramay munosabatda bo‘lgan. FHDYo idoralarining samarali ishlashi uchun xalaqit bergan holatlar sifatida shuni ta’kidlash joizki, ushbu idora turli davrlarda har xil davlat organlari tarkibida bo‘lib kelgan. Xususan, avval IIXK, undan keyin Adliya xalq komissarligi, so‘ng Markaziy ijroiya qo‘mitalari tarkibida bo‘lgan. Bunday o‘zgarishlar uning faoliyatida salbiy rol o‘ynagan.

“Ikkinchi jahon urushidan keyingi yillarda O‘zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy hayot va FHDYo organlari faoliyatidagi o‘zgarishlar” deb nomlangan ikkinchi paragrafda urushdan keyingi yillarda mamlakatni tinch qurilish davriga o‘tkazilishi jarayonlaridagi murakkab vaziyat, sovet tuzumining “kommunizm qurish” dasturini amalga oshirish harakatlari fonida FHDYo idoralarining faoliyatini takomillashtirish bilan bog‘liq vazifalarning amalga oshirilishi masalalariga e’tibor qaratiladi. Bu davrga kelib, FHDYo idoralari faoliyati, xususan, ro‘yxatga olish holatlarida birmuncha ijobiy vaziyat ko‘zga tashlana boshlaganligini ta’kidlash kerak bo‘ladi. Ammo kamchiliklar, xatoliklar to‘liq bartaraf etilmagan.

1951-yilgi O‘zbekiston SSRda FHDYo bo‘limlari va ulardan ro‘yxatdan o‘tish holatlari to‘g‘risidagi ma’lumotlarga ko‘ra nikohdan o‘tuvchilar soni jihatidan Toshkent shahrida eng yuqori ko‘rsatkich qayd etilgan bo‘lsa, ajralish ko‘rsatkichi 1,2% tashkil etgan, xuddi shunday tug‘ilish bo‘yicha ham ko‘rsatkich eng yuqori, unga nisbatan o‘lim 24,2% ni tashkil etadi. Nikohdan o‘tuvchilarning eng kam ko‘rsatkichi Qashqadaryo viloyatiga to‘g‘ri kelgan. Viloyatda nikohdan o‘tganlar va nikohi bekor qilinganlar sonining foiz ko‘rsatkichi esa 0,36% ni tashkil etadi. Bular, albatta, rasman ro‘yxatdan o‘tganlar nazarda tutilgan. Chunki rasman ro‘yxatdan o‘tmaganlar ham mavjud edi. Masalan, SSSR Vazirlar Kengashi huzuridagi Markaziy statistika boshqarmasi demografiya bo‘limi tomonidan qayd etilgan ma’lumotlarga ko‘ra, 1951-yilning birinchi choragida Farg‘ona va Surxondaryo viloyatlarida tug‘ilganlar va o‘limlarni hisobga olish ko‘rsatkichlariga o‘zgarishlar kiritilganligi qayd etiladi. F-1a ga kiritilmagan harakatlar tufayli tug‘ilganlar soni bo‘yicha 219 va o‘limlar soni bo‘yicha ma’lumotlardagi farq 215 tani tashkil etgan²⁵.

²⁴Ата-Мирзаев О., Геншке В., Муртазаева Р. Узбекистан многонациональный, историко-демографический аспект. – Ташкент: Изд-во Медицинская литература, 1988. – С.134.

²⁵ O‘zMA, 1619-fond, 11-ro‘yxat, 1590-ish, 13-varaq.

Bundan tashqari FHDYo idoralari faoliyatini takomillashtirish maqsadida ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirishlar kiritish ishlari olib borilgan. Masalan, fuqarolik holatlari bilan bog'liq hujjatlarni yuritish, ularni rasmiylashtirish, xususan, tug'ilish va o'lim to'g'risidagi ma'lumotlarni aniq yuritishga alohida e'tibor qaratila boshlandi. Bunda FHDYo organlari va tibbiyot muassasalariga jiddiy mas'uliyat yuklandi. Shu munosabat bilan, 1956-yilda "O'zbekiston SSR nikoh, oila va vasiylik to'g'risida"gi qonunlar kodeksining III moddasiga o'zgartirish kiritish loyihasi tayyorlanib, ijro uchun tavsiya etiladi. Ushbu idora faoliyati bilan bog'liq murakkabliklardan yana biri ularni turli yuqori tashkilotlar tarkibiga tez-tez o'zgartirib turilishi bo'ldi. Shunday holatlardan biri KPSS MQ va SSSR Vazirlar Kengashining 1956-yil 25-oktyabrdagi farmoni bilan "O'zSSRda fuqarolik holati dalolatnomalarini ro'yxatdan o'tkazish to'g'risida" O'zSSR Vazirlar Kengashiga kelgan buyruq asosida fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organlarining funksiyalari va ro'yxatga olish 1957-yilning 1-yanvaridan, mahalliy kengashlar ijroiya qo'mitalari ixtiyoriga o'tkazilishi bo'ldi²⁶. Unga ko'ra, FHDYo idoralari yangi tuzilma tarkibida ko'nikma hosil qilishi, yangi tartiblarga moslashishi talab etilar edi. Bu o'z-o'zidan ish samaradorligiga ta'sir ko'rsatadi.

FHDYo idoralari mehnatkashlar deputatlari mahalliy kengashlari ixtiyoriga o'tkazilgach, joylarda aholining tabiiy harakatlanishi to'g'risidagi ma'lumotlarning qanchalik haqiqatga mos kelishini ta'minlash maqsadida statistika organlari tomonidan joylarda tug'ilish va o'lim holatlari qanchalik ravishda to'liq va sifatli ro'yxatga olinayotganligi har yili tekshiruv ishlarini olib borish yo'lga qo'yilgan. 1961-yilning yanvar-fevral oylarida o'tkazilgan ana shunday tekshiruv SSSRda 4544 ta (41399 tadan) qishloq sovetlari va 4882 ta davolash muassasalarida o'tkazilgan. Tekshiruv xo'jalik kitoblari va qishloq sovetlaridagi ro'yxatga olinganlar FHDYo kitoblaridagi yozuvlar bilan taqqoslagan holda o'tkazilgan. Bundan tashqari, tekshiruv jarayonida vrachlar va o'rta tibbiyot xodimlarining shaxsan o'zlari tomonidan yuritilgan yozuvlari ham o'rganilgan. Natijalarga ko'ra ayrim ittifoq respublikalarida ro'yxatga olish qoniqarsiz holatda qolayotganligi qayd etiladi. Ba'zi respublikalarda esa 1959-yilga nisbatan ro'yxatni qayd etish yomonlashgan²⁷. Ayniqsa yomon holat sifatida O'zSSRda QQASSR, Samarqand, Surxondaryo, Andijon, Farg'ona viloyatlari tilga olinadi.

Respublikadagi tekshirishlar mobaynida 141 qishloq soveti va 159 ta shahar va tuman davolash muassasalarining ma'lumotnomalarini FHDYo organlarining yozuvlari bilan solishtirilganda, quyidagi holat kelib chiqadi²⁸:

- a) qishloq (ovul) sovetlari tomonidan tug'ilganlar – 16,8%, vafot etganlar – 20,2%;
- b) FHDYo bo'limlari tomonidan tug'ilganlar – 16,7% hamda vafot etganlarning – 23,8%i ro'yxatga olinmaganligi, ayrim qishloq va ovul sovetlarida ahvol bundan ham ayanchli holatda ekanligi aniqlangan, shuningdek, onalar tug'ruqxonadan chiqib ketguniga qadar vafot etgan yoki o'lik tug'ilgan bolalarni ro'yxatga olish holati ham qoniqarsiz bo'lgan.

²⁶ O'zMA, 1619-fond, 11-ro'yxat, 720-ish, 8-varaq.

²⁷ O'zMA, 837-fond, 39-ro'yxat, 638-ish, 243-varaq.

²⁸ O'zMA, 837-fond, 39-ro'yxat, 638-ish, 216-varaq.

O'rganilayotgan davrda nikohni qayd etish ma'lumotlari tahliliga ko'ra, nikohdan o'tish yoshi 20-26 yoshni tashkil etishi, bu o'g'il bolalar kerakli ma'lumotga ega bo'lib, o'zi ro'zg'or tebrata oladigan bo'lgach nikohdan o'tayotganini bildiradi. Qizlar esa, ayniqsa qishloq qizlari 18-19 yoshdan vaqtli oila qurishmaydigan bo'lishdi. Balog'atga yetmaganlarning turmushga berilishi qonun yo'li bilan jazolanadigan bo'ldi. Oila qurish, nikohdan o'tish masalalarida endilikda ota-onalar emas, balki yoshlarning o'zi tashabbuskor bo'la boshladi.

1964-yil 3-avgustida O'zbekiston SSR Vazirlar Kengashining "O'zbekiston SSR FHDYo organlarining fuqarolik holati dalolatnomalarini ro'yxatdan o'tkazishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori qabul qilindi. Ushbu qarorning ijrosini ta'minlash maqsadida joylarda FHDYo organlari faoliyatini o'rganish ishlari olib boriladi. Jumladan, Samarqand viloyat ijroiya qo'mitasi va viloyat tumanlari ijroiya qo'mitalari tomonidan yuqorida qayd etilgan hukumat qarorining ijrosi 1969-yilning 20-mayidan 29-mayigacha o'tkaziladi va o'rganilgan davrda viloyat bo'yicha ro'yxatga olish to'liq va muntazam olib borilmaganligi aniqlanadi.

Dissertatsiyaning **"XX asr 70-80-yillarida FHDYo organlari faoliyatini takomillashtirish choralarining amalga oshirilishi"** deb nomlangan uchinchi bobining birinchi paragrafi **"XX asr 70-80-yillar birinchi yarmida O'zbekistondagi ijtimoiy-iqtisodiy holat va FHDYo organlari faoliyatini takomillashtirish choralari"** deb nomlanib, unda Respublikadagi ijtimoiy-iqtisodiy vaziyat tahlil etilib, yuzaga kelgan holatning sabablari izohlangan. Ushbu jarayonlarda FHDYo idoralari zimmasiga ham mas'uliyatli vazifalar yuklatilganligi, ularni bajarish jarayonlarida yuzaga kelgan muammolar o'rganilgan. O'zbekiston SSR Ministrlar Sovetining 1971-yil 14-iyulda "Respublikaning bir qator aholi punktlarida tug'ilish va o'limni hisobga olishning qoniqarsiz holati to'g'risida"gi 130-sonli qarori qabul qilinadi²⁹. 1972-yilning 14-noyabrida O'zSSR Adliya vazirligi Kollegiyasining "O'zSSRda FHDYo organlari tomonidan 1971-yilda tug'ilish va o'limni qayd etish holati to'g'risida"gi, 1973-yil 13-iyulda O'zSSR Adliya vazirligining "O'zSSR FHDYo organlari tomonidan 1972-yilda tug'ilish va o'lim holatlarini qayd etilishi to'g'risida"gi 50-sonli qarorlari qabul qilinadi³⁰. Bundan tashqari O'zSSR Vazirlar kengashi 1973-yil 26-iyulda "Qoraqalpog'iston ASSR va O'zSSRning bir qator viloyatlarida tug'ilish va o'limni hisobga olishning qoniqarsiz holati to'g'risida"gi qarorlari qabul qilinadi. Bularning barchasi Respublika FHDYo organlari faoliyatida yutuqlar bilan bir qator jiddiy e'tibor qaratilishi talab etilayotgan nuqson va kamchiliklar mavjudligini ko'rsatar edi.

Bu davrda respublikada aholining o'sish sur'atlari barqaror yuqori (yiliga 2,5-3%) bo'lgani holda bandlikni ta'minlash va mehnat resurslaridan samarali foydalanish dasturi ishlab chiqilmadi. Bu ijtimoiy muammolarning yanada kuchayishiga olib keldi. Birgina 1983-yilda O'zbekiston shaharlarining o'zida 836 ming mehnatga layoqatli aholi ijtimoiy ishlab chiqarishda qatnashmadi³¹. Ayni paytda respublika korxonalaridagi bo'sh ish o'rinlariga mamlakatning Yevropa

²⁹ O'zMA, 837-fond, 41-ro'yxat, 3609-ish, 45-46-varaqlar.

³⁰ O'zMA, 837-fond, 41-ro'yxat, 3609-ish, 47-varaq.

